

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA» FAKUL'TETI

Geografiya yonalish 2-kurs 201-guruh talabasi

Mirzahmedov Isroilning

Jahon geografiyasi fanidan

AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI

mavzudagi

KURS ISHI

Namangan-2014

MAVZU: AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI

REJA:

Kirish

1. Tabiiy sharoiti va resurslari
2. Aholisi va mehnat resurslari
3. Xo'jaligi, sanoati va qishloq xo'jaligi.
4. Xizmat ko'rsatish soxalari va tashqi iqtisodiy aloqalari.
5. Ichki tafovutlar va iqtisodiy rayonlari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Maydoni - 9629 ming km². Axolisi - 291,5 mln kishi (2003 y), Poytaxti - Vashington (shaxar atrofi bilan 3,5 mln kishiga yaqin).

AQSH iqtisodiy-geografik jixatdan qulay, ammo bir-biridan uzoq 3 xududdan iborat.

- Asosiy xudud (xududi 8,84 mln km², axolisi 289,7 mln kishi.) SHimoliy Amerikaning markazida joylashgan- shimolda Kanada va janubda Meksika davlatlari bilan (chegaralar tabiiy marralar - tog'lar, daryo va ko'llardan o'tadi va tinch) chegaralangan va g'arbda - Tinch okeani, sharqda Atlantika okeani dengizlarining suvlari uning qirg'oqlarini yuvib turadi. Qirg'oqlari tabiiy buxta, gavanlarga boy bo'lib, kemachilikni rivojlantirish uchun qulay.

- Alyaska shtati materikning shimoli-g'arbiy qismiga joylashgan Tinch va SHimoliy Muz okeani suvlari bilan o'ralgan va quruqlikda Kanada bilan chegaradosh. (1519 ming km², axolisi 600,0 ming kishi). Bering bo'g'ozini orqali Rossiya (Ratmanov oroli) va AQSH (Kruzenshtern oroli) dengiz chegaralari o'tadi.

- Gavayi orollari (16,7 ming km², axolisi 1,3 mln kishi) Tinch okeanining markaziy qismida (24 ta orol) joylashgan.

AQSH iqtisodiy-geografik o'rnini qulay bo'lib, jaxon mamlakatlari bilan samarali transport-iqtisodiy aloqalarini olib borish imkonini beradi.

AQSH nisbatan yosh davlat, yevropaliklar tomonidan XVI asrdan boshlab o'zlashtirilgan. Dastlab, Atlantika qirg'oq bo'yida Buyuk Britaniyaning 13 ta koloniyasi bo'lgan. XX asrga qadar g'arbga tomon kengaydi (xududlar sotib yoki bosib olindi va o'zlashtirildi). Alyaska 1867 yili Rossiyadan sotib olingan, Gavayi orollari esa uzoq vaqt AQSH mustamlakasi bo'lgan. 1776 yili AQSH mustaqilligi e'lon qilindi. O'tgan asrning 50-yillarida Alyaska va Gavayi orollari shtat maqomiga ega bo'ldi.

1. Tabiiy sharoiti va resurslari.

AQSH federativ respublika. Siyosiy-ma'muriy jixatdan 50 shtat va Kolumbiya federal okrugidan iborat. Amaldagi Konstitutsiya 1787 yilda qabul qilingan va shu kunga qadar 26 ta o'zgartirish kiritilgan, xolos. Mamlakat boshlig'i Prezident. Qonun chiqaruvchi organ - Kongress.

AQSH nixoyatda xilma-xil tabiiy sharoitga va foydali qazilma resurslariga boy. Mamlakatning asosiy xududi ikkiga, tog'li, bir muncha qurg'oqchil g'arb va tekislikdan iborat yetarli namlikka ega sharqiy qismga bo'linadi. Rel'efi murakkab orografik xususiyatlarga ega. Mamlakatning sharqida Atlantika okeani qirg'og'i bo'ylab o'rtacha balandlikdagi Appalachi tog'lari, markazda Markaziy va Buyuk tekisliklar (Preriy platosi), g'arbda yirik tog' massivi - Kordil'era, janubi-sharqda Atlantika bo'yi, Florida va Meksika qirg'oq bo'yi pasttekisliklari joylashgan. Tekislik va pasttekisliklar qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun juda qulay. SHuningdek, Kordil'era tizimi bir nechta tog' zonalaridan iborat bo'lib, ular oralig'ida ichki plato va yassi tog'liklar mavjud. Eng yuqori nuqtasi Mak-Kinli tog'i (6193 m) Alyaskada joylashgan. Qoyali tog'lar, Qirg'oq bo'yi tog' tizmalari, Kaskadli va S'erra-Nevada tog'lari, Yukon (Alyaskada), Kolumbiya platolari, Katta xavza va Kolorada platosi oralig'idagi Uillamet va mashxur Kaliforniya vodiylari (Farg'ona vodiysiga o'xshash) xo'jalik jixatdan o'zlashtirilganligi bilan ajralib turadi.

Kordel'era - yirik iqlimiy chegara bo'lib, Tinch va Atlantika xavzalari uchun suv ayrig'ich rolini bajaradi. Rel'efning meredional yo'nalishi esa iqlimiy, tuproq-o'simlik sharoitlaridan tashqari muxim iqtisodiy indikatorlar — transport to'ri va axoli joylashishiga xam ta'sir ko'rsatgan.

AQSHda iqlim xilma-xil. Xududning katta qismida mo''tadil va subtropik iqlim, Florida janubida tropik, Alyaskada subtropik va mo''tadil, Gavayi orollarida dengiz tropik iqlimi qaror topgan. Sovuqsiz kunlar shimoliy xududlarda olti oy, janubda esa yil bo'yi davom etadi. Iqlim kontinentallashib, markaz va g'arbiy xududlarga tomon o'sib boradi. Yog'ingarchilik sharqda 500-

2000 mm, g'arbda (Tinch okeani qirg'oq bo'yining shimoli-g'arbidan tashqari) 200-500 mm atrofida.

Meridional yo'nalish bo'yicha tuproq-o'simlik olami o'zgarib boradi, asosiy o'rmon resurslari mamlakatning shimoli-g'arb va janubi-sharqida joylashgan va o'rmon-sanoat majmuasi shakllangan. Suv resurslari xudud bo'yicha notekis taqsimlangan. Kanada bilan chegaradosh dunyodagi yirik ko'llar tizimi - Buyuk ko'llar (Yuqori, Michigan, Guron, Ontario, Eri) bo'lib, transport va gidroenergetika, baliqchilik, turizm nuqtai-nazaridan katta ahamiyatga ega. Missisipi va uning irmoqlari (Ogayo, Tennesi, Missuri va Arkanzas) gidroresurs va sug'orishda, Kolumbiya va Kalorado gidroenergoresurs manbai sifatida muxim o'rin tutadi.

Foydali qazilmalari. AQSH foydali qazilmalarga juda boy. Ayniqsa, yoqilg'i-energetika resurslari, qora va rangli metallarning yirik zaxiralari, tog'-kimyo xom ashyosi va boshqa resurs zaxiralari bilan ajralib turadi.

Yirik ko'mir xavzalari (dunyo zaxiralarining 25% to'g'ri keladi) SHarqiy provintsiyada (Appalachi va Pensilvaniya), Ichki provintsiyada (Illinoys va G'arbiy), Buyuk Tekisliklar shimolida (Fort Yunon), Qoyali tog'lar (Yunita xavzasi) va Alyaskada joylashgan. Yiliga 1 mlrd t atrofida ko'mir qazib oladi va dunyoda ikkinchi o'rinda (1-o'rinda Xitoy) turadi.

AQSH neft va tabiiy gazning katta zaxiralariga ega. Yirik neft-gaz xavzalari Alyaskada (Pradxo-Bey) mamlakat janubi (Texas va Luiziana shtatlari) va Tinch okeani sohil bo'yida (Kaliforniya shtatida) joylashgan.

Temir rudasi Michigan va Minnesota shtatlarida, molibden va vol'frum tog'li shtatlarda, mis Arizona, Yuta, Nyu-Meksiko, Montana shtatlarida, rux Tennesi va Nyu-Djersi, qo'rg'oshin (AQSH qo'rg'oshin zaxiralari jixatidan Avstraliya va Kanada bilan bir xil o'rinda turadi), qo'rg'oshin-rux rudalari Aydaxo, Yuta, Montana, Missuri shtatlaridadir.

Qimmatbaxo (oltin, kumush, platina), radiaktiv elementlar (uran, toriy), nodir, kamyob va sochma metallarga boy (Kordilbera).

SHuningdek, fosforit Florida, SHimoliy Karolina, Aydaxo shtatlarida, oltingugurt Meksika bo'yi pastekisligidan qazib olinadi. Qurilish materiallariga boy. Ayni vaqtda, nikel, kobalt, qalay va kaliyli tuzlarni import qiladi.

Mamlakatda tabiatni saqlash, qo'riqlash va qayta tiklash sohasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Muxofaza qilinadigan tabiat ob'ektlari orasida Iellouston, Yosemite, Sekvoye, Grand-Kanyon milliy bog'lari, Mamont(Mamont g'ori), Karlsbad tog'lari va boshqa mo'ljizaviy tog', tekislik, pastekislik landshaftlari, daryo vodiylari, ko'l va sharsharalar (Niagara), o'simlik va xayvonot olami, sihat-salomatlikni saqlash resurslari (davolovchi), turizmni va turizm industriyasini rivojlanishiga kuchli ta'sir etmoqda.

2. Axolisi va mehnat resurslari.

AQSH axolisi soni jixatdan Xitoy va Xindistondan so'ng dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Axoli soni ortishida immigratsiya asosiy rol o'ynaydi. XIX asr oxirlariga qadar G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan, so'ngra SHarqiy Yevropa, keyingi yillarda Lotin Amerikasi va Osiyo mamlakatlaridan immigratsiya kuchaydi.

Axolining o'rtacha o'sish sur'atlari 0,5-0,6%. Yillik tug'ilish koefitsenti 14G'1000, o'lim koefitsenti 9G'1000 (2003 y), o'rtacha umr ko'rish darajasi erkaklarda 73 va ayollarda 80 yosh. Mamlakat axolisining 80% kelib chiqishi yevropaliklardan iborat bo'lib, bir nechta asosiy etnik guruxlardan iborat. Kelib chiqishi nemislardan iborat bo'lgan amerikaliklar eng ko'p sonli bo'lib, AQSH axolisining 20-25% (60 mln kishi) tashkil qilsa, ikkinchi o'rinda kelib chiqishi irlandlardan iborat amerikaliklar 10-13% axolining(30 mln kishidan ortiq) va uchinchi etnik gurux kelib chiqishi britanlardan iborat amerikaliklar (20 mln.), to'rtinchi o'rinda kelib chiqishi ital'yanlar (12 mln) va beshinchi o'rinda kelib chiqishi polyaklardan iborat amerikaliklardir. SHuningdek, aloxida irqiy gurux-negrlar mamlakat axolisining 12%idan iborat (30 mln kishi). Ayni vaqtda, Lotin Amerikasi, Karib xavzasi, Arab mamlakatlari, Xitoy, Xindiston va boshqa dunyo mamlakatlaridan kelgan turli millatlar

(jumladan, o'zbeklar 5000 dan ortadi) yashaydi. Maxalliy axoli xindu, eskimos va aleutlar mamlakat axolisining 1%ini tashkil qiladi.

Bugungi amerikalik millati - yevropalik kelgindilar, afrikalik negrlar va maxalliy axoli aralashmasidan shakllangan. AQSH axolisining o'rtacha zichligi xar bir km² ga 28 kishidan to'g'ri keladi. Sanoatlashgan mintaqalarda (AQSH ning shimoli-sharqiy rayonlari), okean soxil bo'yi mintaqalarida zich (xar bir km² ga 100 kishidan ortiq), agrar va tog'li xududlar va Alyaskada (xar bir km² ga 2-12 kishi) siyrak joylashgan. Kaliforniya, Nbyu-York, Texas, Florida shtatlarida axoli ko'p bo'lsada, sanoatlashgan shimolda mamlakat axolisining qariyb 50% yashaydi.

AQSH - dunyodagi yuqori urbanizatsiyalashgan mamlakat bo'lib shaxar axolisi 80% ga yaqin. Millioner shaxarlari - Nbyu-York, CHikago, Los-Andjeles, Xbyuston, Filadelfiya, Detroyt, Dallas, San-Diego va boshqa. AQSH Ro'yxat Byurosi shaxar va shaxar atrofi-ya'ni aglomeratsiya o'rnida «Metropolitan statistik maydoni» (MSM) terminini qo'llaydi. MSM chegaralari graflik (quyi ma'muriy birlik) chegaralari bilan belgilanadi. AQSH da 280 MSM bo'lib mamlakat axolisining 77% yashaydi. MSM nafaqat shaxar manzarasi balki, shaxar va grafliklar atrofidagi o'tloq va yaylovlar, o'rmonlarni xam o'z tarkibiga oladi.

Yirik shaxarlar atrofida 80 dan-150 ga qadar kichik va o'rtacha shaxarlar to'plangan bo'lib bunday aglomeratsiyalar megalopolis, ya'ni, o'ta yirik shaxarlar mintaqasi deb yuritiladi. AQSH da 3 ta yirik megalopolis - Bosvosh (Boston-Vashington shaxarlarini) yoki Atlantika soxil bo'yi (800 km ga cho'zilgan) 40 dan ortiq shaxar aglomeratsiyalarini o'z ichiga oladi xamda 80 mln ga yaqin axoli yashaydi, CHipits (CHikago-Pittsburg shaxarlari) yoki Ko'llar bo'yi (20 dan ortiq shaxar aglomeratsiyalari kiradi va 35 mln dan ortiq axoli yashaydi) va San-San yoki Tinch okeani soxil bo'yi (10 dan ortiq shaxarlar va 20 mln dan ortiq axoli kiradi) shakllangan. SHuningdek, Kaliforniya, Arizona, Texas va Florida megalopolislari shakllanmoqda.

Qishloq axolisining ko'pchiligi agrar sektor bilan bog'liq emas. Ular juda ishchan bo'lib, shaxarcha xizmatlarining mavjudligi bilan ajralib turadigan qishloqlarda istiqomat qiladi va fermer xo'jaliklari bilan aralashtirib bo'lmaydi.

3. Xo'jaligi, sanoati va qishloq xo'jaligi.

AQSH ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi, iqtisodiyotining tarkibi, milliy maxsulotlarning raqobatbardoshligi, ilmiy-texnik va intellektual salohiyatga egaligi xamda xozirgi vaqtdagi o'ziga xos siyosati bilan xalqaro munosabatlar va jaxon iqtisodiyoti yo'nalishlarini begilashda yetakchi rol o'ynaydi. Iqtisodiy rivojlanishning amerika modeli ko'pgina iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar uchun andoza rolini o'ynagan bo'lsa, uning modifikatsiyasi, ya'ni o'zgargan shakllari yangi industrial mamlakatlarning istiqbolli rivojlanishida keng qo'llanildi.

AQSH dunyodagi eng yirik sanoat maxsulotlari ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi mamlakat. Dunyodagi eng yangi texnologiyalar ishlab chiqarishning 45% to'g'ri keladi va dunyo YaIM 25% beradi. AQSH 400 mln t, ortiq bug'doy ishlab chiqaradi va uning qariyb yarmini eksportdan qiladi. Tashqi savdo aylanmasi 1,5 trln doll, dan ortadi va dunyo eksportining 12,6% (shundan 11,5% jaxon sanoat maxsulotlari eksporti, 13,5% mashina va transport jixozlari, 13% kimyo sanoati maxsulotlaridan iborat) to'g'ri keladi.

SHuni aloxida ta'kidlash lozimki, AQSH iqtisodiyotining rivojlanish samaradorligi ilmiy-texnik salohiyat, milliy xo'jalikning biquqligi, yuksak texnologiya va ilmiy-texnik progress yo'nalishlari, moliya-bank tizimi jixatidan dunyo mamlakatlari orasida XXI asr birinchi o'n yilligida tengi yo'q mamlakatdir.

AQSH iqtisodiyotining bosh xususiyati—ishlab chiqarish va kapitalning yuqori kontsentratsiyasidir. Bugungi kunda Amerikadagi yirik korporatsiyalar o'zining faoliyati va muomala ko'lami jixatidan transmilliy korporatsiyalarga (TMK) aylandi. Dunyodagi 500 eng yirik

TMKdan 100 tasi AQSH ga qarashlidir. Jumladan, «General Motors» «Epson», «Fogd Motogs», «Microsoft» va boshqalar.

AQSH iqtisodiyotidagi xalqaro ixtisoslashuv elektrotexnika va elektronika sanoati (ayniqsa, super-EXM), aviakosmik, xarbiy atom sanoati, biotexnologiya va boshqalardir. Iqtisodiyotda tog'-kon sanoati, qora metallurgiya, to'qimachilik va tikuvchilik xissasi qisqarib, kimyo, mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmoqlari xissasi tobora ortib bormoqda. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga bo'lgan xarajat, ilmiy xodimlar va muxandislar soni jixatdan oldinda turadi.

Natijada, 90-yillardan boshlab mamlakat iqtisodiyoti resurslarni tejoyvchi yuksak texnologik bosqichga kirdi. Ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishi, samarali bandlik, inflyatsiyaning past darajasi va federal byudjet xolati yaxshilandi. Amerika yuqori darajadagi biznes-elitasining islox etilishi («Boing» korporatsiyasining «Mak-Donnel - Duglas» korporatsiyasi bilan «Lokxid» ni «Norton Gruten» bilan qo'shilishi va boshq.) aviakosmik va mudofaa sanoatida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi.

Ammo, AQSH iqtisodiyotidagi eng keskin muammo-mamlakat ichki qarzining o'sishi va bandlik darajasi bo'lib qolmoqda. SHunga qaramay, XX asr oxiri XXI asr boshlarida AQSH xo'jaligi va YaIM tarmoq tarkibidagi o'zgarish moddiy ishlab chiqarish soxalari ulushining qisqarishi va noishlab chiqarish soxalari (xizmatlar soxalari) ulushining barqaror ortib borishidir.

Sanoat - AQSH iqtisodiyotida barqaror rivojlanib borayotgan tarmoq. AQSH sanoati 3 ijtimoiy ishlab chiqarish -ishlov beruvchi sanoat, qazib beruvchi sanoat va elektroenergetikadan iborat. Sanoat maxsuloti ishlab chiqarishda ishlov beruvchi soxaning ulushi 80,4%, elektroenergetika ulushi 13%, qazib beruvchi sanoat ulushi esa 6,6% ni tashkil qiladi. Sanoatda ilm talab soxalar -mikroelektronika, lazer texnikasi, oldindan berilgan xossalar asosida printsipial yangi materiallar ishlab chiqarish, gen

injenerligi va biotexnologiya, robot va roboto-texnika, biqiq avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish, avtomatlashtirilgan tizimlarni loyixalashtirish, kosmik priborsozlik va boshqalar jadal rivojlanmoqda. Robotlar ishlab chiqarishning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 40% dan ortiq. Resurslarni tejash texnologiyasiga o'tish YaIM birligiga-nisbatan energiya talablilikni 25% va material talablilikni qariyb 20% qisqartirish imkonini berdi.

AQSH yirik yoqilg'i-energetika sanoatiga ega bo'lib, uning asosini ko'mir, neft va tabiiy gaz, uran va gidroresurslar tashkil qiladi. Ko'mir (yiliga 930 mln, t,) asosan Appalachi, Markaziy xavza va tog'li shtatlardan qazib olinadi, deyarli IESlarda foydalaniladi va eksportga chiqariladi.

AQSH razvedka qilingan neft xaziralari bo'yicha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar o'rtasida birinchi o'rinda turadi. Yiliga 380 mln t ortiq neft qazib chiqarilsada, ichki extiyojni qondira olmaydi va Kanada, Venesuela va Fors ko'rfazi mamlakatlaridan import qiladi. Yiliga 540 mlrd m³ tabiiy gaz qazib chiqarishiga qaramay Kanadadan gaz import qiladi. Yirik neft monopoliyalari «Eksson», «Teksako» «Galor Oyl» va boshq.

AQSHda yiliga 3712 mlrd kVtG's (1997 y.) elektrenergiyasi xosil qilinadi. Mamlakat yoqilg'i-energetika balansida IES (70%), GES va AES (28%) va alternativ energo manbalar xissasiga 2% (geo IES, ko'mir va shamol energiyasi) to'g'ri keladi. AESlarda 110 ta energoblok mavjud.

Qora metallurgiya sanoati (yiliga 90 mln t, po'lat eritiladi) garchi, o'zak tarmoq bo'lganligiga qaramay, bugungi kunda bir qator muammolarga ega. Yirik qora metallurgiya markazlari Pittsburg, Buyuk ko'llar rayoni, Atlantika qirg'oq bo'yi (import ruda asosida), Dallas va Xbyustondir. Qora metall eritishni nazorat qiluvchi yirik kompaniya «Yunayted Steyts Stil korporeyshn» va boshq.

AQSH rangli metallurgiyaning asosiy turlarini ishlab chiqaruvchi mamlakatdir. Mis, rux, qo'rg'oshin eritish Montana, Yuta, Aydaxo, Arizona

shtatlarida, Tinch okean qirg'oq bo'yining shimoli-g'arbi, Atlantika qirg'oq bo'yi rayonlaridir. Alyuminiy sanoati (yiliga 3 mln t alyuminiy eritadi va dunyoda 1-o'rinda turadi) rivojlangan.

Mashinasozlik va metallni qayta ishlash AQSHdagi eng yirik sanoat tarmog'i bo'lib, ishlov beruvchi sanoat maxsuloti qiymati va bandlarning 4% to'g'ri keladi. Mashinasozlik minglab firma va korxonalardan iborat bo'lishiga qaramay yirik monopoliyalar: avtomobilsozlikda «Djeneral Motors», «Ford motors» «Kraysler», samalyotsozlikda «Boing», «Makdonell Duglas», «Lokxid», elektrotexnika va elektronikada «Djeneral elektrik», kompyuterlar ishlab chiqarish va dasturiy ta'minot tizimida «Microsoft» kompaniyasi va boshq. roli katta.

Avtomobilsozlikda «katta uchlik» korporatsiyalari mamlakat ichki extiyojining 75%ini, yapon avtomobil zavodlari esa 25% ni qondiradi. Detroyt shaxri «avtomobilsozlik poytaxti»dir va yana 20ta shtatda avtomobilsozlik korxonalari mavjud. Yiliga 8 mln, dona turli markadagi yengil va yuk avtomobillari ishlab chiqariladi.

Samolyotsozlik AQSH dagi eng yirik tarmoqlardan bo'lib, kuchli monopollashgan («Boing», «Makdonell Duglas», «Lokxid» va boshq.). Masalan, «Boing» korporatsiyasi korxonalari yiliga 400 ga yaqin xavo laynerlarini ishlab chiqardi. Asosiy markazlari Los-Andjeles, San-Diego, Anaxaym, Sietl, Dallas, Xyuston, Atlanta va boshq. Ayni vaqtda, AQSH dunyo bozoridagi fuqaro aviatsiyasining 2G'3 qismini nazorat qiladi.

Kemasozlik - mashinasozlikning boshqa tarmoqlariga nisbatan bo'sh rivojlangan bo'lib, boshqa mamlakatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya, Braziliya, Tayvanь) raqobatiga chidamaydi. Kemasozlik verflari Atlantika qirg'oq bo'yi, Meksika ko'rfazi va Buyuk ko'llar rayonida joylashgan.

Elektrotexnika va elektronika sanoati - sanoat va maishiy maqsadlar uchun xilma-xil maxsulotlar ishlab chiqaradi. Xalqaro EXM bozorini amerika firmalari («Ay-Bi-EM», «Microsoft» boshchiligida) nazorat qilsada, ichki va tashqi bozorda chet el firmalari (ayniqsa Yaponiya) raqobati kuchlidir. XX asr oxiri va XXI asr

boshlarida barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ITining yangi bosqichi - biqiq avtomatlashgan ishlab chiqarish (BAII) va avtomatlashgan loyixalar tizimi (ALT), raqamli-programmalashgan boshqarish dastgoxlari (RPBD) va maxsus transport tizimi ishlab chiqarish boshlandi. AQSH avtomatlashtirilgan loyixalar, ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari xalqaro bozorining 80% nazorat qilmoqda. Yirik markazlari - CHikago, Los-Andjeles, San-Frantsisko, Nbyu-York, Boston, Pittsburg va boshq.

Sanoat va fanning kooperatsiyasi kuchaydi va o'ziga xos ilmiy-texnik xududiy majmualar shakllandi. Masalan, AQSHning Kaliforniya shtatida «Silikon vodiysi» dunyodagi yarim o'tgazgichlar (50% amerika elektronikasi) ishlab chiqaradigan rayon bo'lib, shunday majmua Boston shaxri yaqinida xam shakllanmoqda.

Kimyo sanoati rivojlanganlik darajasi jixatidan AQSH dunyoda oltinchi o'rinda turadi. «Dyupon de Nemur», «Dou kemikl», «Monsanto» va boshq. Yirik firmalar plastmassa, kimyoviy tola, sintetik kauchuk, mineral o'g'itlar, farmatsevtika, kosmetika va boshqa maxsulotlarni ishlab chiqaradi. Asosiy kimyo sanoati rivojlangan rayonlar shimoldagi shtatlardir. SHuningdek, Meksika ko'rfazidagi (Texas va Luiziana shtatlari), Tennesi daryosi vodiysida, Tinch okeani soxil bo'yida rivojlangan.

Oziq-ovqat sanoati - yirik tarmoq bo'lib, to'qimachilik, tikuvchilik va poyabzal tarmoqlaridan oldinda turadi va o'ziga xos «sanoat imperiya»sidir. Bu tarmoq rivojlangan qishloq xo'jaligiga tayanadi. SHimolda yirik go'sht, konserva, parxez go'sht va tuxum (yirik parrandachilik fabrikalari), tog'li shtatlarda sut-un-yorma sanoati (Kanzas-Siti, Oklaxoma-Siti va boshq.), meva-konserva zavodlari (Kaliforniya va Florida) va boshqa turdagi oziq-ovqat korxonalari tarqalgan. Butun dunyoda mashxur «Koka Kola», «Pepsi» va boshqa korporatsiyalar TMKlar qatoriga kiradi.

SHuningdek, o'rmon-tsellyuloza, to'qimachilik, tikuvchilik va poyabzal tarmoqlari kuchli rivojlangan bo'lib, yirik sanoat

markazlarida to'plangan. Bugungi kunda AQSHda 5 ta ishlov beruvchi sanoat korxonalarining kontsentratsiyasini ajratish mumkin.

- «Sanoatlashgan mintaqa». SHimoldagi yirik markazlarni (Nyu-York, CHikago, Detroyt, Filadelfiya) o'z tarkibiga oladi va metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, yengil va oziq-ovqat va boshq. tarmoqlarga ixtisoslashgan.

- Meksika ko'rfazi (Texas va Luiziana shtatlari) neftni qayta ishlash, neft-kimyo, aviaraketa, tikuvchilik, oziq-ovqat sanoati;

- Tennesi daryosi vodiysi - energotalab kimyo, metallurgiya va xarbiy sanoat;

- Tog'li shtatlar - asosan rangli metallurgiya xom ashyolari;

- Tinch okeani shtatlari (Kaliforniya va Vashington shtatlari) aviaraketa, kosmik va radioelektronika, neftni qayta ishlash va neft-kimyo, rangli metallurgiya, oziq-ovqat, yengil, o'rmon-tsellyuloza sanoati rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi. AQSH qishloq xo'jaligida iqtisodiy faol axolining 3% band bo'lib, YaIMdagi xissasi 2% tashkil qilsada, iqtisodiyotda g'oyat muxim o'rin tutadi (agrosanoat majmuasining xissasi YaIM 20% dan ortadi). Qishloq xo'jaligi yirik ko'lami va xilma-xil maxsulotlar ishlab chiqarishi, mexnat unumdorligining yuqoriligi va texnika bilan qurollanganlik darajasi, yuqori tovar xo'jaliklarining ixtisoslashuvi va kooperatsiyasi bilan boshqa mamlakatlardan ajralib turadi.

AQSHda 2,0 mln dan ortiq fermer xo'jaliklari bo'lib, dunyoda yetishtirilayotgan makkajo'xoring 45% va bo'g'doyning 12%ni yetkazib beradi. Dunyoda makkajo'xori va bug'doy eksport qilish bo'yicha 1-o'rinda, sholi eksporti bo'yicha (Tailand) 2-o'rinda turadi.

Er fondining katta qismi (xududining 2/3 qismi) xususiy yer egaligiga, qolgani davlatga qarashlidir. Xususiy yerlarning 62% fermer xo'jaliklarga qarashli bo'lib, 60% fermerlar yeri to'la xususiy mulk bo'lsa, qolganlari qisman egalik qiladi yoki ijarachidir. Fermerlar yerlarining 1/3 qismigina to'la shaxsiy yer egalariga qarashlidir.

Qishloq xo'jaligida yirik xo'jaliklarning roli ortib bormoqda. Bunday yirik xo'jaliklarga fermer maydonlarining 50% qarashli bo'lib, qishloq xo'jaligidagi daromadning 50%ga yaqini to'g'ri keladi. AQSH g'arbida esa o'rtacha fermer xo'jaliklari (180 ga) kengaymoqda. Ammo, yirik xo'jaliklar tomonidan kichik va o'rta xo'jaliklarni siqib chiqarish jarayoni xam davom etmoqda.

Qishloq xo'jaligi tarkibida chorvachilik (qishloq xo'jaligi maxsuloti qiymatining 52%) ustun rivojlangan. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 52% yaylovlardan iborat (239 mln ga) va dunyoda Avstraliya va Xitoydan so'ng 3-o'rinda turadi.

Ziroatchilikda yirik don xo'jaliklari katta o'rin tutadi. (yalpi xosil bo'yicha Xitoydan so'ng 2-o'rinda turadi.) Ayova, Illinoys shtatlarida makkajo'xori, Buyuk tekisliklarning g'arbiy rayonlarida bug'doy yetishtirish yetakchi o'rin tutadi. Ekin va xosilni yig'ishda qishloq xo'jaligi ekinlari ekish va xosilni yig'ishga ixtisoslashgan maxsus qishloq xo'jaligi firmalari ishtiroki tobora oshib bormoqda.

AQSHda agroiqlimiy xususiyatlar xamda iste'mol mintaqalari ta'sirida ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi zonalari:

- sut chorvachiligi zonasi - mamlakatning shimoli va shimoli-sharqi, Buyuk ko'llar rayoni;
- makkajo'xori zonasi - go'sht chorvachiligi bilan uyg'unlashgan xolda Buyuk ko'llar janubida;
- chorvachilik-donchilik zonasi - asosan makkajo'xori zonasining janubida;
- bug'doykor zona - Preriy, mamlakatning shimoli-g'arbi va Kolumbiya platosida;
- paxtakor zona - shimolda chorvachilik-donchilik va bug'doykor zonalari oralig'i, janubda tor polosada Meksika qo'ltig'idan Atlantika okeaniga qadar;
- yaylov chorvachiligi zonasi - g'arb tog'li shtatlarini o'z tarkibiga oladi va eng katta xududni egallaydi;
- sabzavotchilik zonasi - Atlantika soxil bo'yidagi tor polosa;

- nam subtropik zona - Meksika ko'rfazi va Floridani o'z tarkibiga oladi va tsitrus mevalar, sholi, tamaki, shakar qamish va boshq. qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtiriladi;

- quruq subtropik zona - Tinch okeani qirg'oq bo'yining janubi va Kaliforniya vodiysini o'z ichiga oladi xamda tsitrus mevalar, uzumchilik va bog'dorchilik, sabzavot-poliz kartoshkachilik rivojlangan.

4. Xizmat ko'rsatish soxalari va tashqi iqtisodiy aloqalari.

AQSH iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish soxalari barqaror o'sib bormoqda va YaIMdagi xissasi 65%dan (transport va aloqadan tashqari) iborat. Bu soxada bandlar ulushi 75%ga yaqinlashmoqda AQSH statistikasi ishlab chiqarish va xizmatlarga - transport, aloqa, ulgurji va chakana savdo, umumiy ovqatlanish, moliya-kredit va sug'urta, ishlab chiqarish va maishiy xizmat, ta'lim, sog'liqni saqlash, qisman fan, davlat apparati boshqaruvi, xarbiy-politsiya boshqaruvi, siyosiy, g'oyaviy va propaganda apparati faoliyatini qo'shib xisoblaydi.

Nomoddiy soxalarning 25% moliyaviy xizmatlar, sug'urta, ko'chmas mulk muomalalaridan, 22% ulgurji va chakana savdodan, 26,3% ishbiarmonlik, xuquqiy, ijtimoiy, shaxsiy xizmat, sog'liqni saqlash, dam olish va ko'ngil ochar tadbirlar, avtoserviz va boshqa, 8,5% transport va aloqa, 18,4% davlat boshqaruvi xissasidan iborat.

Transporti. AQSHda barcha transport turlari rivojlangan (Alyaskadan tashqari). Dunyo transport tarkibida AQSH transporti umum transport ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. Dunyo aloqa yo'llarining 1G'3 qismi, iqtisodiy rivojlangan davlatlar yuk tortuvchi (40%) va yuk ko'taruvchi (30%) transport vositalari xamda AQSH transport tizimiga 30% dunyo yuk va yo'lovchi aylanmasi to'g'ri keladi. Ayni vaqtda, AQSH transport to'ri va tizimi-asosiy xududining kattaligi, axoli joylashishi va suburbanizatsiya jarayonlari, ishlab chiqarish markazlari va iste'mol rayonlari, sanoat va xo'jaligining ixtisoslashuvini yaqqol ifodalaydi. AQSH yuk aylanmasida barcha transport turlari deyarli bir xil

o'rin tutadi.(temiryo'l-27%, avtomobil-24%, suv-27%, quvur transporti-21%). Ayni vaqtda, avtomobil, quvur va xavo transportining xissasi sezilarli ravishda ortib bormoqda.

Temir yo'llarning umumiy uzunligi 280 ming km bo'lib, ularning 50% iqtisodiy rivojlangan shimol shtatlariga to'g'ri keladi. Temir yo'llarning asosiy qismi transkontinental magistral yo'llar xisoblanib, Atlantika okeanidan Tinch okeani qirg'oq bo'ylarini tutashtiradi. SHuningdek, kenglik va meridional yo'nalishdagi yo'llar xam mavjud. Bugungi kunda temir yo'llarning texnik jixatdan qurollanish jarayoni tezlashdi va ichki konteyner yuk tashishlari temir yo'l va avtomobil va temir yo'l-suv transporti aralash tizimi kengayib bormoqda. Yirik temir yo'l tugunlari-CHikago, Solt-Leyk-Siti, Nbyu-York, Detroyt va boshq.

AQSH avtomobil transporti zamonaviy transport vositalari va yo'llariga, yuqori darajada xizmat ko'rsatuvchi serviz tizimiga ega. Avtomobil parki 200 mln avtomashinadan iborat bo'lib, buning 3G'4 qismi yengil va 1G'4 qismi yuk avtomobillaridir. Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 6200 ming km shundan, qattiq qoplamga ega bo'lgan yo'llar 5400ming km takomillashgan qoplamga ega bo'lgan yo'llar 3500ming km. Avtomobil yo'llarining sifat jixatdan yaxshilanishi davom etmoqda. Avtomobil yo'llari okeandan okeanga, kenglik va meridional yo'nalishga ega. Ammo, yirik sanoat markazlari, megalopolislarida avtomobil oqimining «tiqini» kuchayib borishi, atmosferani ifloslantirishdan tashqari asabga teguvchi «shovqin zo'riqishi»dan iborat «psixoxayajon» jarayonini yuzaga keltiradi.

AQSH - dastlabki quvur transporti rivojlangan mamlakatlardan biri. Quvur transportining umumiy uzunligi 730 ming km-(shundan magistral neft quvurlari-275 ming km) bo'lib, mamlakatdagi 75% neftni xaydaydi. Aynan neft magistrallari neft qazib chiqaruvchi rayonlardan iste'mol rayonlarga (Texas shtatidan AQSHning barcha shtatlariga, Alyaskadan Tinch okean qirg'oq bo'yiga) yo'nalgan.

Ichki suv transportining rivojlanishi yil bo'yi davom etadigan navigatsiya bilan bog'liq bo'lib AQSH yuk aylanmasining 11,5% to'g'ri keladi. Suv yo'llarining umumiy uzunligi - 45 ming km. (Missisipi daryosi xavzasi, Buyuk ko'llar). Yirik portlar - CHikago, Dulut, Buffallo, Detroyt, Klivlend, Tolido va boshq.

AQSH xalqaro yuk aylanmasining 75% dengiz transportiga to'g'ri keladi. Mamlakatda 100 ga yaqin dengiz portlari (portlarning ko'pchiligi chuqur emas va yirik ixtisoslashgan tankerlar uchun noqulay bo'lsada dunyodagi yirik konteyner tashish flotiga va markazlariga ega) bo'lib, shundan, 18 tasining yuk aylanmasi 20 mln t ortadi. Bu portlarda barcha yuklarning 80% tushiriladi. Dengizda yuk tashish bo'yicha AQSH dunyoda Yaponiyadan so'ng 2-o'rinda turadi. AQSH ko'proq «qulay bayroq»lar mamlakatlari orqali kabotaj (Panama kanali, Meksika ko'rfazi, Atlantika va Tinch okeani qirg'oq bo'ylari) aloqalaridan foydalanadi. Yirik portlari - Nьyu-York, Yangi Orlean (yuk aylanmasida birinchi o'rinda), Filadelfiya, Baton-Ruj, Korpus-Kristi, San-Frantsisko, Sietl, Los-Andjelos.

Xavo transporti ichki va xalqaro yo'lovchi tashishda katta o'rin tutadi. Dunyodagi eng yirik fuqaro aviatsiyasi parkiga ega. Xavo liniyalari SHimoli-SHarq-Florida, O'rta G'arb-Tinch okeani qirg'oq bo'ylari yo'nalishlarida to'plangan. Yirik aeroportlar - Nьyu-York, CHikago (Oxayr), Los-Andjelos, Atlanta, Dallas, Mayami va boshq.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. AQSH xalqaro savdoda ko'zga ko'rinarli o'rin tutadi. AQSH tashqi savdo aylanmasi barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tashqi savdo aylanmasidan ko'pdir (1997 yil eksport 625,1 mlrd doll va import 822,6 mlrd doll.). Keng ko'lamli ichki bozorga ega. AQSH dunyo xo'jaligidagi aloqalari XX asr oxirgi 10 yilligida sifat jixatdan o'zgardi. Agar uzoq davr mamlakat iqtisodiyoti «yopiqligi» bilan ajralib turgan bo'lsa, endilikda tashqi savdoni rivojlanishi, kapital migratsiyasining kuchayishi, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi va

ilmiy-texnologik aloqalardagi ishtirokining kengayishi bilan ajralib turmoqda va bu iqtisodiy o'sishning muxim omillaridan biri bo'lmoqda. AQSH firmalari va kompaniyalari o'z vatani va xorijda birgalikda biznesni amalga oshirish, kooperatsion va boshqa ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantirish uchun xorijlik sheriklar bilan faol xarakat qilmoqda.

AQSH milliy ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini va raqobatchilardan ximoya qilishning oqilona yo'llarini qidirmoqda. Natijada, 1988 yilda «Raqobatbardoshlik va savdo to'g'risidagi qonun majmuasi» qabul qilindi.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida AQSH xo'jaligi bozorlarning globallashuvi sharoitida rivojlanmoqda. AQSH tovarlari, texnologiya, kapital, kompaniya va banklar faoliyati ko'proq jaxon xo'jaligiga yo'nalmoqda va ichki bozor - xalqaro aloqalar rivojlanishining muxim omiliga aylanmoqda. AQSH ichki bozorida G'arbiy Yevropa, Yaponiyaning va boshqa industrial mamlakatlarning o'zaro kurashi davom etmoqda.

Eksportda zamonaviy va o'ta zamonaviy sanoat maxsulotlari -yarim o'tkazgichlar, elektronika maxsulotlarining ko'plab turlari, aviakosmik va lazer texnikasi, aloqa vositalari texnologiya, patentlar, litsenziya va maslahat xizmatlari, xo'jalik maxsulotlari (bug'doy, oziq-ovqatlar va boshq) yetakchi o'rin tutadi. Mamlakatda ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotlarining o'rtacha 15%, bo'g'doyning 50%, soya va tamakining 1G'3 qismi, makkajo'xorining 1G'5 qismi eksportga chiqadi. AQSH xalqaro bozorning 72% makkajo'xori, 2G'3 qismi soya, 1G'3 qism bo'g'doy va makkajo'xori bilan ta'minlaydi.

Importda neft, rangli va kamyob metallar, po'lat ishlab chiqarish va iste'mol maxsulotlari (ilm talab, axborotni qayta ishlash jixozlari, dastgoxlar, sanoat robotlari, televizor, videotexnika, avtomobil, kino-foto apparatura, to'qimachilik va poyabzal maxsulotlari va boshq.) muxim o'rin tutadi. Asosiy savdo sheriklari Yaponiya, G'arbiy Yevropa mamlakatlari (GFR), yangi industrial mamlakatlar (bu mamlakatlarga 40% eksport va import to'g'ri keladi). Keyingi yillarda AQSH bozorida Xitoy tovarlari ko'paymoqda. AQSH tashqi iqtisodiy

aloqalarida XX asr oxirigi o'n yilligida savdo-sotiqqa nisbatan chetga kapital chiqarish va chetdan kapital kirgizish muxim o'rin tutmoqda. AQSHga dunyodagi 1G'3 xorijiy investitsiyalar to'g'ri keladi va o'n yillikda o'rtacha 17% o'sdi.

Xorijga chiqarilayotgan investitsiyaning asosiy qismi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlarga (tog'-kon sanoati, tsitrus mevalar va boshq.) to'g'ri keladi va 88 mlrd doll. dan (1988 y) oshdi. Amalda ishlab chiqarish, savdo-moliyaviy soxalarni nazorat qiluvchi amerika kapitali ta'sirida AQSHning xorijda «ikkinchi iqtisodiyoti» shakllandi. AQSH «ikkinchi iqtisodiyoti» G'arbiy Yevropa mamlakatlari YaIM xajmidan 2-3 marta yuqoridir. Xalqaro iqtisodiy aloqalarda TMK roli katta. Jumladan, AQSH tashqi savdo aylanmasining 2G'3 va 4G'5 qism patent-litsenziya tovarlari, kapital eksportning katta qismi, TMKlar xissasiga to'g'ri keladi. AQSH import qilayotgan tovarlarning 1G'3 qismi amerika korporatsiyalarining xorijdagi filiallari maxsulotlaridir. TMK yuqori texnologiyalarning o'zak soxalarini nazorat qilishi tufayli o'z raqobatbardoshligini saqlab qolmoqda.

Ayni vaqtda, XX asr 90-yillardan xorij kapitalining AQSH ichki bozoriga kirib kelishi kuchaydi va amerikaning xorijdagi kapitalidan (aktivlaridan) 0,5 trln doll. ortdi. AQSH xo'jaligi xorij pul resurslarini akkumulyatsiya qiluvchi katta rezurvuarga aylandi. Mamlakatga xorij investitsiyasi Yaponiya (avtomobil zavodlari, radiotexnika, elektronika, elektrotexnika va boshq.), Buyuk Britaniya va Niderlandiya (neft), Kanada (ko'chmas mulk), Germaniya (kimyo sanoati) va boshqa mamlakatlar tomonidan kiritilmoqda. Natijada, AQSH monopoliyalari va korporatsiyalari o'rtasida nafaqat xalqaro bozor balki ichki bozorda xam raqobat kuchaymoqda.

AQSH bilan O'zbekiston o'rtasida ikki tomonlama siyosiy va iqtisodiy munosablarni tartibga soluvchi bir nechta xukumatlararo shartnomalar mavjud. 1992 yil diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. 2000 yil boshlarida O'zbekiston va AQSH savdo aylanmasi 300 mln AQSH doll.dan oshdi. AQSH tomonidan O'zbekistonda qo'shma korxonalar («Zarafshon-Nyuyont» boshq.) barpo

etilgan, ruda konlarini o'rganish, lizing va boshqa manfaatli masalalar yuzasidan xamkorlik rivojlanib bormoqda.

5. Ichki tafovutlar va iqtisodiy rayonlari.

AQSH xududlarini tarixiy o'zlashtirish, xo'jalikning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari, ishlab chiqarish kuchlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari milliy iqtisodiyotning mintaqaviy tarkibi va makroiqtisodiy tafovutlari jixatidan to'rtta¹ makroiqtisodiy rayon, SHimoli-SHarq, O'rta-G'arb, Janub va G'arbgga bo'linadi. SHimoli-SHarq mamlakatning industrial yadrosi, yirik xududiy-ishlab chiqarish majmualari, qora metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika va elektronika, kompyuter texnikasi va ofis jixozlari, kimyo, atom va xarbiy sanoat, xilma-xil yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Savdo, moliya-bank, sug'urta, reklama va boshqa xilma-xil xizmatlar tizimi uzluksiz rivojlanib bormoqda.

SHimoli-SHarq makroiqtisodiy rayonida Bostondan-Vashington shaxriga qadar cho'zilgan (Bos-Vash) eng yirik urbanizatsiyalashgan mintaq — megalopolis shakllangan. Makromintaqada nafaqat AQSHdagi, balki dunyodagi eng yirik shaxarlardan biri Nbyu-York joylashgan. Nbyu-York sanoat savdo, moliya-bank markazi, transport tuguni (dengiz porti, temir yo'l, avtomobil va xavo yo'llari kesishgan). Sug'urta va reklama, xilma-xil xizmatlar markazi bo'lishidan tashqari, xalqaro tashkilotlar (BMT) joylashgan shaxar megalopolisdir.

Nbyu-York megalopolisining kengayishi davom etmoqda va qo'shni shtatlarning (70 km atrofida) xududlariga xam kirib bormoqda. Megalopolis janubida AQSHning poytaxti - Vashington shaxri joylashgan. Vashington AQSH parlamenti qaroriga ko'ra ma'muriy markaz sifatida maxsus loyixa asosida qurilgan bo'lib, yirik ilmiy va madaniy markazdir. Baltimor

¹ XX asr 90-yillarining boshlariga qadar uchta SHimol, Janub va g'arb bosh iqtisodiy rayonlarga bo'lib o'rganilgan va bunday bo'linish tarixiy-iqtisodiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarni to'la ifodalagan. Bugungi makroiqtisodiy rayonlashtirish XX asr oxirgi 30 yilligida ishlab chiqaruvchi kuchlarning hududiy joylashishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qzgarishlarni yaqqol ifodalaydi

yirik aglomeratsiyaga ega port shahar, 3 mln dan ortiq axoli yashaydi. Yirik metallurgiya (Sporrous-Poynt metallurgiya kombinati), mashinasozlik (kemasozlik), neftni qayta ishlash (import neft xisobiga), kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati markazi, asosiy eksport va import (eksportga chiqarilayotgan ko'mirning 2G'3 qismi jo'natiladi) ishlari amalga oshiriladi. Metallurgiya-mashinasozlik markazi - Pittsburg va boshqa sanoat markazlari joylashgan. Intensiv qishloq xo'jaligi (sabzavotchilik, bog'dorchilik, sut-go'sht chorvachiligi, gulchilik) rivojlangan.

• **O'rta G'arb makroiqtisodiy rayoni.** AQSHning industrial-agrar (yirik agrosanoat majmuasi rivojlangan) mintaqasi. O'rta G'arb AQSH xududining 20% egallagan xolda 50% qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetkazib beradi. Qulay agroiklimiy xususiyatlar - bug'doy, makkajo'xori, sut-go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan mintaqalarning, yirik tovar xo'jaliklari-fermerlarning shakllanishiga olib kelgan. Rayonda Buyuk ko'llar va unumdor Preriyni uzviy bog'lab turuvchi bosh qishloq xo'jaligi bozori, sanoat, moliya-bank, savdo-sotiq, ilmiy va madaniyat, transport markazi, o'ndan ortiq aglomeratsiyalar qurshovidagi CHikago megalopolisi (10 mln dan ortiq axoli) amerika iqtisodiy rivojlanishining timsoli sifatida shakllangan. Detroyt (2,0 mln dan ortiq axoli) shaxri yirik avtomobilsozlik (Ford birinchi avtomobil zavodini 1903 yili qurgan), kimyo, yengil va oziq-ovqat, keyingi yillarda elektrotexnika va elektronika, boshqa zamonaviy va o'ta zamonaviy sanoat korxonalari rivojlangan savdo, moliya, sug'urta, ilmiy va madaniy markaz.

• **Janub** makroiqtisodiy rayoniga AQSH xududining 29% va axolisining 31% to'g'ri keladi. Yirik neft, tabiiy gaz, ko'mir, fosforit, oltingugurt va boshq. zaxiralarga boy. Qishloq xo'jaligi ayniqsa, plantatsiya xo'jaligi, paxta, tamaki, shakar qamish, sholi, yong'oq, tsitrus mevalar, tropik va subtropik sabzavotchilik, bog'dorchilik rivojlangan. Uzoq yillar davomida tog'-kon sanoati

(neft, tabiiy gaz, ko'mir, fosforit, oltingugurt, temir rudasi, rangli metallar) rivojlangan bo'lsa, XX asrning 50-yillardan boshlab zamonaviy industriya tarmoqlari (samolyot-raketasozlik, xarbiy sanoat, kosmik texnika, elektrotexnika, alyuminiy, rangli metallar eritish, atom industriyasi va boshqa ilmtalab tarmoqlar), neftni qayta ishlash, yengil va oziq-ovqat sanoati kabi tarmoqlar jadal rivojlandi. Qishloq xo'jaligida o'rtacha va yirik fermer xo'jaliklari yetakchi o'rin tutadi.

Meksika qirg'oq bo'yi mintaqasida o'nlab shaxar aglomeratsiyalari Texas megalopolisini shakllanishiga olib kelmoqda. (Texas, Galveston va boshq.) Makroiqtisodiy rayonda Yangi Orlean (port-sanoat majmuasi shakllangan, aerokosmik sanoat, savdo, moliya, markazi), Dallas (neftni qayta ishlash, kimyo, oziq-ovqat), Xyuston (neft, gaz, neftni qayta ishlash, neft—kimyo va boshq. tarmoqlar), Bermengem (qora metallurgiya), Atlantika (sanoat, savdo va moliya), iqtisodiy markazlari mavjud, Florida nafaqat kosmik parvozlar (Kanaverel (Kennedi) burni) markazi balki turizm (yiliga 50 mln dan ortiq turist tashrif buyuradi) o'choqlaridan biridir.

- **G'arb** makroiqtisodiy rayoni iqtisodiy o'zlashtirilishi jixatdan SHimoli-SHarq, O'rta-G'arb va Janubga nisbatan yosh. AQSHning 40% xududi va 18% axolisi to'g'ri keladi. Tog'li va Tinch okean bo'yi shtatlari kiradi. Makroiqtisodiy rayonga 20% tog'-kon sanoati, 12,8% sof ishlov beruvchi sanoat maxsulotlari qiymati, 20% xosil qilinayotgan elektrenergiyasi va 20% qishloq xo'jaligi maxsulotlari to'g'ri keladi. Foydali qazilmalarga juda boy, Neft, tabiiy gaz, uran, rangli noyob metallar, fosforit va kaliyli tuzlar qazib olinadi xamda qayta ishlanadi. Zamonaviy industriya samalyotsozlik, raketasozlik, kosmik texnika, elektronika va boshq., xarbiy sanoat, arzon gidroresurslar asosida energotalab tarmoqlar (alyuminiy, mis, qo'rg'oshin-rux, uran, atom va boshq.) o'rmon-tsellyuloza, mashinasozlik, kemasozlik va avtomobilsozlik, oziq-ovqat, baliqchilik, xilma-xil yengil sanoat rivojlangan. Sug'orma dexqonchilik (Kaliforniya vodiysi) yirik va ajabtovur milliy parklar, tog' turizmi va boshqa rekreatsion resurslar asosida turizm industriyasi rivojlanib bormoqda.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida Kaliforniya vodiysi aloxida ajralib turadi. Kaliforniya o'zining argoiqlimiy xususiyatlariga ko'ra Farg'ona vodiysiga o'xshash bo'lib, AQSHning bosh qishloq xo'jaligi rayoni, «bog'i, uzumzori va sabzavot-poliz yetishtiruvchi mintaqasi»dir. Ayni vaqtda, Kaliforniya yirik sanoat, savdo-sotiq, madaniyat va xizmatlar markazi bo'lishdan tashqari, AQSHning bosh ilmiy va xarbiy-sanoat majmuasi rayonidir. Qishloq xo'jaligida intensiv ziroatchilik (agrorbiznes) sug'orma dexqonchilik va ekstensiv chorvachilik (tog' yaylovlarida) yetakchilik qiladi.

Yirik shaxar aglomeratsiyalari (15 dan ortiq) tor qirg'oq bo'yida bir-biri bilan qo'shilib (800 km) Tinch okeani megalopolisini xosil qiladi (San-Diegodan San-Frantsiskoga qadar) va undan Meksika chegaralariga qadar cho'zilgan.

Xulosalar

- AQSH iqtisodiy-geografik jixatdan qulay, ammo bir-biridan uzoq 3 xududdan (asosiy xudud Alyaska va Gavayi orollari) iborat. AQSH federativ respublika. Siyosiy – ma'muriy jixatdan 50 ta shtat va Kolumbiya federal okruginan iborat. Tabiiy sharoiti nixoyatda xilma-xil, foydali qazilmalarga boy. Rel'efi murakkab tuzilishga ega. Foydali qazilmalardan yirik yoqilg'i - energetika resurslari (ko'mir, neft, gaz), temir rudasi va rangli metallar, nodir, kamyob va qimmatbaxo metallarga boy.
- AQSH axolisi soni jixatdan Xitoy va Xindistondan so'ng dunyodagi uchinchi mamlakat. Mamlakat axolisi sonini ortishida immigratsiya asosiy rol o'ynagan. Tabiiy o'sish sur'atlari past. Urbanizatsiya darajasi yuqori 80% dan iborat. Dunyodagi eng yirik megolopolislar shakllangan. Bugungi amerikalik millati-evropalik kelgindilar, afrikalik negrlar va maxalliy axoli aralashmasidan shakllangan.
- AQSH ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi, iqtisodiyotning tarkibi, maxsulotlarning raqobatbardoshligi, ilmiy-texnik va intellektual salohiyatga egaligi xamda xozirgi vaqtda o'ziga xos siyosati bilan xalqaro munosabatlar va jaxon iqtisodiyoti yo'nalishlarini belgilashda yetakchi rol o'ynaydi. Iqtisodiy rivojlanishning Amerika modeli ko'pgina iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar uchun andoza rolini o'ynagan bo'lsa, uning o'zgargan modifikatsiyasi, ya'ni o'zgargan shakllari yangi industrial mamlakatlarning istiqbolli rivojlanishida keng qo'llaniladi.
- Sanoat AQSH iqtisodiyotida barqaror rivojlanib borayotgan tarmoq. AQSH sanoati uch ijtimoiy ishlab chiqarish-ishlov beruvchi sanoat, qazib beruvchi sanoat va elektroenergetikadan iborat. Sanoat maxsulotlari ishlab chiqarishda ishlov beruvchi sanoatning ulushi 80,4%, elektroenergetika ulushi 13% va qazib beruvchi sanoatning ulushi 6,6% dan iborat. Sanoatda ilm talab soxalar-mikroelektronika, lazer texnikasi, gen injineriyasi va biotexnologiya, robot va roboto - texnika, kosmik priborsozlik va boshq. jadal rivojlanmoqda.

➤ AQSH qishloq xo'jaligida iqtisodiy faol axolining 3% band bo'lib, YaIM dagi xissasi 2% ni tashkil qilsada, mamlakat iqtisodiyoti va jaxon qishloq xo'jaligi bozorida muxim o'rin tutadi. AQSHda barcha transport turlari rivojlangan. Dunyo aloqa yo'llarining 1G'3 qismi, iqtisodiy rivojlangan davlatlar yuk tortuvchi (40%) va yuk ko'taruvchi (30%) transport vositalari xamda dunyo yuk va yo'lovchi aylanmasining 30% to'g'ri keladi.

AQSH xalqaro savdoda yetakchi o'rin tutadi va tashqi savdo aylanmasi barcha iqtisodiy rivojlangan davlatlar tashqi savdo aylanmasidan ko'pdir. AQSH xududlarini tarixiy o'zlashtirish xo'jalikning rivojlanish jarayonlari, ishlab chiqarish kuchlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, milliy iqtisodiyotning mintaqaviy tarkibi va makroiqtisodiy tafovutlari jixatidan 4 ta makroiqtisodiy rayon-SHimoli-SHarq, O'rta-G'arb, Janub va G'arbga bo'linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12—tom., T., «O'zbekiston», 2004.
2. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13—tom., T., «O'zbekiston», 2005.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T., «Ma'naviyat», 2008.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T., «O'zbekiston», 2009.
5. Abdullaev.O. Iqtisodiy geografiya va ekologiya. Namangan 2002.
6. Atlas Mira stranni mira v kartax i faktax. M.: ZAO “kompaniya”, AST-PRESS. 1999.
7. Axmedov.E., Sayidaminova.Z. O'zbekiston Respublikasi (qisqacha ma'lumotnoma). T., 1998.
8. Lomakin V.K. Mirovaya ekonomika. Rostov-, izd-vo Yuniti. 2007
9. Soibnazarov A. O'rgimchak to'ri. //“XXI asr” gazetasi, 2009 yil 23 aprel', № 17 (283)-son.
10. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 1—14 jildlar. T., Davlat ilmiy nashriyoti. 2000-2006.
11. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plam. –T., 2007.
12. Xodiev B. va boshq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009.